

ANJUMAN | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES

O'ZBEKISTONDA MILLIY TADQIQOTLAR:

DAVRIY ANJUMAN

DAVRIYLIGI: 2018 | 2022



MENDELEEV DMITRIY IVANOVICH
(1834-1907)

2022
FEVRAL
№37



CONFERENCES.UZ

Toshkent shahar, Amir
Temur ko'chasi, pr.1, 2-uy.

+998 97 420 88 81

+998 94 404 00 00

www.tadqiqot.uz

www.conferences.uz



**ЎЗБЕКИСТОНДА МИЛЛИЙ
ТАДҚИҚОТЛАР: ДАВРИЙ
АНЖУМАНЛАР:
8-ҚИСМ**

**НАЦИОНАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
УЗБЕКИСТАНА: СЕРИЯ
КОНФЕРЕНЦИЙ:
ЧАСТЬ-8**

**NATIONAL RESEARCHES OF
UZBEKISTAN: CONFERENCES
SERIES:
PART-8**

ТОШКЕНТ-2022



УУК 001 (062)
КБК 72я43

“Ўзбекистонда миллий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” [Тошкент; 2022]

“Ўзбекистонда миллий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” мавзусидаги республика 37-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 28 февраль 2022 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2022. - 17 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳтил қилинган конференцияси.

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

5. Давлат бошқаруви

Доцент Шакирова Шоҳида Юсуповна (Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети)

6. Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобохонов Олтибой Рахмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Муסיқа ва ҳаёт

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Рахмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25.География

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

Тўпلامга киритилган тезислардаги маълумотларнинг ҳаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

АДАБИЁТ

1. Ботирова Рафиқaxon Мамаджановна “БОБИРНОМА”ДА СОННИНГ ИФОДАЛАНИШИ.....	7
2. Egamberdiyeva Ma’nora Baqojon qizi “DUNYONING ISHLARI” ASARIDA ONA OBRAZINING O’ZIGA XOS TALQINI	9
3. Mahramova Nargiza Sobirjonovna NAVOIY VA BOBIR ASARLARIDA BOG’LANGAN QO’SHEMA GAPLARNING IFODALANISHI	11
4. Mustafoeva Nodira Safoyevna NAJMIDDIN KUBRO IJODINING TARBIYAVIY AHAMIYATI.....	13
5. Alikulova Nasiba Mustafoevna ADABIYOT DARSLARIDA XALQ OG’ZAKI IJODI MAVZUSINING O’QITILISHI YUZASIDAN TAVSIYALAR.....	15



АДАБИЁТ

“ БОБИРНОМА”ДА СОННИНГ ИФОДАЛАНИШИ

Ботирова Рафиқaxon Мамаджановна

Андижон вилояти, Андижон шаҳар

17-сонли мактаб ўқитувчиси

Аннотация. Мақолада “Бобирнома” асарида соннинг ифодаланиши ўқувчига мисоллар ёрдамида тушунарли даражада ёритилган.

Калит сўзлар. “Бобирнома”, санок сон, нумератив сон, тартиб сон, чама сон, каср сон, дона сон.

Заҳириддин Муҳаммад Бобир ижоди эски ўзбек адабий тили, яъни XIV асрдан XIX асргача бўлган тил тарихи даврига тўғри келади. Унинг рубойи, ғазал ва кўплаб шеърини асарлари, шу билан бирга “Бобирнома”сида эски туркий тил бирликларида унумли фойдаланганини кўрамыз. “Бобирнома” асари тили анча содда, жонли тилга анча яқин. Навоийнинг асарларига нисбатан ҳозирги замон ўқувчисига кўпроқ тушунарли. “Бобирнома” асари грамматик жиҳатдан мукамал асар ҳисобланади. Асарда сон сўз туркумининг ифодаланиши ҳақида фикр юритсак. Эски ўзбек тилида ҳам соннинг ҳозирги ўзбек тилидаги турлари мавжуд бўлган: *санок сон, тартиб сон, жамловчи сон, дона сон, чама сон, тақсим сон, каср сон*. Шу билан бирга, бу сонларнинг ифодаланиши ва шаклланиши бўйича эски ўзбек тилининг ўзига хос томонлари ҳам бор ва айнан “Бобирнома”да кўзга яққол ташланади. Қуйидагича изоҳлаймиз: Санок сонлар. *Уч-тўрт лак алуб қойарлар* (Бобирнома. 332) Бу гапда л а к сўзи юз минг(100000) маъносида келяпти. Ёзма ёдгорликларда *туман* бирмунча фаол қўлланган бўлса, *лак сўзи эса кам учрайди*. Санок сон одатда отбиланбирга қўлланиб, унинг сонини, микдорини кўрсатади. Қуйидаги гапда бу фикр ўз исботини топган. *Икки йуз киши* бар эди (Бобирнома. 101). **Ноаниқ сон.** Бу сон ўзининг мазмунини билан санок сонларга яқин туради. Ноаниқ сон тахминий, ноаниқ микдорни кўрсатиши билан характерланади, асосан *кўп, аз* сўзлари билан ифодаланган. *Йагининг кўпи ва азлиги маълум эмас*. (Бобирнома. 129). **Тартиб сонлар.** Тартиб сонлар тузилишида эски ўзбек тилида ҳам ҳозирги ўзбек тилида ҳам мавжуд, яъни катта сон олдин, кичик сон кейин келади. *Йуз йигирма бэш мынг тағ болғай* (Бобирнома. 353). **Жамловчи сон.** Эски ўзбек тилида жамловчи сон санок сонларга –ав, -ала, -авлан, -агу, -агун қўшимчалари қўшилиши билан ясалган. Бобир ижодида ҳам намуналар кўришимиз мумкин. *Мэн ва Муҳаммад кўкалташ икав келдук* (Бобирнома. 11). **Дона сон ва нумератив (ўлчов ёки ҳисоб сўзлар)сўзлар.** Дона соннинг морфологик йўл билан ифодаланиши эски ўзбек тили учун характерли бўлмаган. Эски ўзбек тилида –*та/-те* қўшимчаси билан дона сон ясашиши асосан *бир* сони билан чегараланган ва санок сон билан ҳам ифодаланган. Мисол: *Уч таза нан кэлтурди*. (Бобирнома. 141). **Нумератив сўзлар.** Эски ўзбек тилида ҳам нумератив сўзлар кенг истеъмолда бўлган. Бундай сўзлар санок сўзлар билан бирга қўлланиб, маъно жиҳатдан дона сонларга яқин туради. Эски ўзбек тилида ҳам нумератив сўзларнинг қўлланиши асосан аниқланаётган нарса-буюмнинг характерига боғлиқ. Нумератив сўзлар нумератив сўзларнинг ишлатилишига мисоллар: *Икки баҳра* эл (Бобирнома. 141). *Икки шаръи* йол (Бобирнома. 141), *Бир-икки курух* йол (Бобирнома. 339), *Бир парча* йэр (Бобирнома. 195). Одатда нумератив сўзларнинг айримлари нарса-буюмларгагига нисбатан, айримлари жониворларгагигна нисбатан қўлланади. Айрим ҳолларда бу тартибнинг бузилиши ҳам учрайди. Масалан: *Муҳиб Али ва бир парча киши қошуб, Ҳамид устига таъйин қылдук* (Бобирнома. 152). **Чама сон.** Чама сон маъноси эски ўзбек тилида санок сонга –ча қўшимчасини қўшиш билан ифодаланади. Масалан: Ҳавузнинг атрафда 316), *Танбал икки йузча* киши билан турубтур (Бобирнома. 131). Мисоллардаги *йигирмача, икки йузча* сўзлари чама сон ўрнида қўлланган бўлиб,



ҳозирги ўзбек тилидаги “йигирматача”, “икки” юзтача маъносини билдиради.

Бундан ташқари “Бобирнома”да иккита санок соннинг жуфт сўз шаклида келиши ҳам кузатилади ва бу чама сон маъносини ифодалашини англаб олиш қийин эмас. Бунда одатда кичик сон олдин, катта сон кейин келади. Масалан: **Он икки- он уч йашида найны** хоб чалур экандур(Бобирнома. 229). Бундай ҳолларда жуфт сон иккитадан ортиқ санок сондан ташкил топган бўлиши ҳам мумкин. Масалан: **Мэнинг жан тартқан нокарларым, он-он бэш-йигирма киши болгай, йэтиб кэлдилар** (Бобирнома. 145) Жуфт сон таркибидаги санок сонларнинг ҳар бири билан аниқлашмиш сўз такрорланиб келиши ҳам мумкин. Масалан: **Ҳар йыл бу оланга чықыб бир ай, икки ай олтурурлар** (Бобирнома. 60). Бундай ҳолларда катта сон олдин, кичик сон кейин келиши ҳам мумкин. Масалан: **Бир шатунынг кэнглиги анча ким, уч киши, икки киши йандаша чықа алур** (Бобирнома. 60).

Тақсим сон – эски ўзбек тилида тақсим сон маъносини ифодалашда қуйидаги усуллардан фойдаланилган. Тақсим сонлар –ар (унлидан кейин: -шар, -рар) қўшимчаси билан ясалган шакли қўлланган. Ҳинд эли фуслны ким, тортар ай таъин қылыбтурлар, ҳар фаслда **иккирар** айны ыссықнынг ва йагыннынг ва савуқнынг зоры тутубдурлар (Бобирнома).

Тақсим сон эски ўзбек тилида санок сонларга –ын/-ин қўшимчасини қўшиш билан ҳам ифодаланган. Масалан: **Аҳли мажлис бирин-иккин** (битта-иккитадан демоқчи муаллиф) **кэлдилар** (Бобирнома 317). Асарда каср сонлар ҳам қўлланган бўлиб, асосан эски ўзбек тилида бутуннинг бўлагини англатувчи **йарым** сўзи билан ифодаланган. Масалан: **Бу чашма нынг суйи йарым тэғирман суйыга қавушур** (Бобирнома 424).

Хулоса қилиб айтадиган бўлсак, Бобир эски ўзбек тили имкониятларидан унумли фойдаланганининг гувоҳи бўлдик. Бугун ўқувчига фақатгина асарларнинг бадий талқинини ўргатиб қолмасдан, унинг тил хусусиятларини ҳақида ҳам тушунчалар бериб борсак шу давр тилининг бугунги тилимизга яқинлигини ҳис қилиши ўқувчида янги бир тасаввурнинг юзага келишига омил бўлиб хизмат қилади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ғ.Абдирахмонов, Ш.Шукуров. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси. Т.1973.
2. Бобирнома. Т.,1997.



“DUNYONING ISHLARI” ASARIDA ONA OBRAZINING O‘ZIGA XOS TALQINI

Egamberdiyeva Ma’nora Baqojon qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o‘zbek tili va adabiyoti universiteti magistranti

Annotatsiya: O‘zbek adabiyotida ona obrazining go‘zal va betakror namunalarini yaratgan yozuvchilardan biri O‘tkir Hoshimovdir. Adib asarlarida Ona obrazi shu qadar mustahkam va muhim o‘rin tutadiki, ularsiz hatto yozuvchining yaxlit ijodini tasavvur qilish qiyin. O‘tkir Hoshimov mahoratining ko‘pdan-ko‘p qirralari ko‘pincha bevosita mana shu obrazning yaratilishi va yoritilishidagi muvaffaqiyat bilan tutashib ketadi. Shunday ekan, Ona obrazi tadrijini tadqiq etish; muallif ijodiy niyatlarining badiiy tajassumini, obrazlar tizimi hamda milliy qadriyatlar, milliy ruhiyatlar, milliy qiyofalar talqinini yaxlitlikda ochib berish; bir ijodkor siymosidagi muayyan bir muammo talqini orqali o‘zbek adabiyotining ayrim milliy o‘ziga xosliklarini ko‘rsatish mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Kalit so‘z: Ona siymosi, fe‘l-atvor, jamiyat, portret, fazilatlar, insonparvar.

Kirish. Badiiy adabiyotda tasvirlanguvchi inson qalbi va ongida ro‘y berayotgan evrilish, o‘zgarishlarning sir-sinoatlarini, sabab-oqibatlarini, ularning jamiyat ravnaqi, zamondosh kamolotidagi o‘rnini, binobarin, shularni yuzaga chiqaruvchi yozuvchi mahoratini zug‘umli siyosat va mafkura emas, umumbashariy, insonparvar mezonlar, milliy qadriyatlar asosida, badiiy ijodiyotning ichki qonuniyatlariga asoslanib o‘rganish, tadqiq etish lozimligi bugungi adabiyotshunoslik oldiga yangi-yangi vazifalar qo‘ydi. Avvalgi bosqichlarda yaratilgan asarlarni ham Istiqlol g‘oyalari bilan chambarchas aloqadorlikda o‘rganish adabiyotshunoslikning dolzarb vazifalaridan biri bo‘lib qoldi.

Ona siymosi dunyodagi barcha xalqlar uchun muqaddas va mo‘‘tabardir. Ularni birlashtirib turuvchi mushtarak fazilatlar bisyor, albatta. Lekin, ayni vaqtda, har bir xalqqa, millatga mansub ona siymosi o‘z fe‘l-atvori, tabiati, ichki va tashqi dunyosi, hatto, portreti bilan muayyan darajada farqlanib turadi. Ona butun bir xalq, butun bir millatning o‘ziga xosligi, shakllanishi, namoyon bo‘lishida alohida o‘rin tutuvchi siymodir va ayni vaqtda, har bir inson kabi jamiyat, muhit, sharoitning vakili sifatida o‘ziga xos bir individumdur.

Adabiyot sharhi. O‘tkir Hoshimov ijodida “Dunyoning ishlari” qissasi adibning ona obrazini yaratishdagi kulminatsion nuqtasi bo‘ldi, deyish mumkin. Zero, mazkur qissa o‘zbek kitobxonlari va adabiyotshunoslarigina emas, xorij kitobshinavandalari qalbini ham zabt etdi.

Adib asarlarida fojiaiy Onalar obrazi alohida o‘rin tutadi. “Dunyoning ishlari” va “Ikki eshik orasi” asarlarida bir nechta erkakshoda ayollarning fojiaiy hayoti yoritib beriladi. Jumladan, Zebi (“Dunyoning ishlari”) obrazi. Adib ijtimoiy davr talabi tufayli erkak singari ishlashga majbur bo‘lgan fojiaiy ayol qismatini ochadi. Zebi traktor minib, kechani kecha, kunduzni kunduz demay dalalarda tinim bilmaydi. Nozik yelkalariga ulkan mas’uliyat oladi.

Asar bo‘yicha muhokama. Qissadagi “Gilam paypoq” hikoyasida ona o‘z jigarbandini kasallik xavfidan tezroq qutqarish uchun har narsaga, hatto o‘z jonidan kechishga ham tayyorligi go‘zal tarzda yoritib berilgan. Ona qattiq shamollab qolgan o‘gilchasini shosha-pisha, Voy, endi nima qilaman! Voy, bolam o‘lib qoladi! degan tahlika bilan, qahraton qish va ko‘chada qor bo‘lishiga qaramay, tabib Hoji buvining hovlisiga yuguradi. Bola darddan biroz yengil tortgach, o‘z sogligini xavf ostiga qo‘ygani - oyogini sovuqda oldirgani ma’lum bo‘ladi. Ona mehrini qanchalik tuganmas va cheksiz quyosh nurlaridan-da iliq ekanligini shu hikoya orqali his qilamiz. Bu yorug‘ olamda faqat onaizorgina o‘z jonidan dilbandining sogligini ustun qo‘ya oladi. U ogrinsa, ming o‘lib, ming tiriladi. Tunlari yiglab bolasi yonida parvona bo‘ladi. Farzandining oyogiga tikan kirsas, kipriklari bilan olishga uning uchun jon fido qilishga ham tayyor. Bunday ulkan jasoratga faqat onalarimizgina qodir.

Asardagi “Alla” deb nomlangan bob ham nihoyatda ta’sirchanligi bilan kishini o‘ziga rom etadi. Alla inson bolasining hayotda tinglaydigan ilk qo‘shiq, u vujudimizga ona suti bilan singgan umrbod unutilmasdir. Yozuvchi bu ezgu qo‘shiqni ilohiy kuchga ega bo‘lgan, ko‘ngilni allanechuk hislar tomon eltadigan ohang sifatida ta’riflaydi. Allaning tag zamirida aslida “Alloh” so‘zi kelib chiqayotgani uning ilohiyligiga dalildir. Yozuvchi bejizga Alla va tilovatini birga keltirib,

“Rabbano-o-o, rabbano-o-o...” “Allayo, alla”... Bir xil bo‘lib ketdim. Panjarador darvozaga



suyanib uzoq turib qoladi.

Bu bobning qabriston tasviri bilan boshlanishi, tilovat va alla inson hayotini ikki eshik orasidan iborat ekanligiga ishora etayotgandek go'yo.

Qissaning “Iltijo” deb nomlangan bobida insonning ona oldidagi farzandlik burchini hech qachon, hech nima bilan ado etolmasligi nihoyatda ta'sirchan ifodalanadi. Chunki onalarimizning hayotdagi o'rni beqiyos. Faqat u farzandi uchun kechalarni bedor o'tkazgan, farzandining sogligi, baxt-kamoli uchun yelib yugurgan buyuk zot. Onaning bir kecha bedor o'tkazgan tunini farzand yelkasida ko'tarib, hajga olib borsa ham uzolmaydi. Ha, ona ana shunday dilbandi uchun jonkuyar, mushfiq va mehribon zotdir...

Adabiyotlar:

1. Hoshimov O'. Dunyoning ishlari: Qissa va hikoyalar / T.: Yangi asr avlodi, 2015. - 336 b.
2. Duysenbaev O. O'tkir Hoshimov ijodida badiiy obraz va milliy an'analar munosabati // SamDU ilmiy tadqiqotlar axborotnomasi. – Samarqand, 2005. - № 6. – B. 64-67.
3. Duysenbaev O. Ona – mehr demak // Qoraqalpoq adabiyoti. – Nukus, 2011. - № 2. – B. 5.
4. Duysenbaev O. O'tkir hoshimov ijodida ona obrazi / Filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent, 2011. – B. 25.



NAVOIY VA BOBIR ASARLARIDA BOG’LANGAN QO’SHEMA GAPLARNING IFODALANISHI

Mahramova Nargiza Sobirjonovna

Andijon viloyati, Andijon shahar ,
17-sonli maktabning ona tili va
adabiyot fani o’qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Navoiy va Bobir asarlarida qo’shma gaplarning tuzilishida bog’lovchilarning ahamiyatiga alohida to’xtalib o’tilgan va misollar asosida tushuntirilgan.

Kalit so’zlar. Yuklama, bog’lovchi, qo’shma gap, yordamchi so’zlar, payt, izoh, qiyoslash, sabab-natija.

Ma’lumki, bog’langan qo’shma gapni tashkil etishda teng bog’lovchilar bilan birga ayrim yuklamalarning ham roli katta. Hozirgi o’zbek adabiy tilida teng bog’lovchilarning barcha turlari va yuklamalar ham keng qo’llanadi. Ammo til taraqqiyotining ilk davrlarida yordamchi so’zlar juda kam qo’llangan bo’lsada, o’ziga xos vazifaga ega bo’lgan. Quyida biz Navoiy va Bobir asarlarida qo’llangan bog’langan qo’shma gaplarni hosil qiluvchi ayrim yordamchi so’zlar haqida fikrlashamiz.

Yama, yana. Yama so’zi **yana, ham** yordamchilariga yaqin vazifani bajargan. Yana yordamchisi ham semantik munosabatda bo’lgan gaplarni biriktirib, qo’shma gap hosil qilishda xizmat qiladi. Bu yordamchi yolg’iz qo’llanadi. Asosan qo’shma gapning ikkinchi qismi boshida keladi va so’nggi qismdan anglashilgan mazmunning oldingi qismdan anglashilgan mazmunga qushilishini ko’rsatadi:

“Haft paykar”ki keldi mushk sirisht,

Yana oning yonida “Hasht behisht” (“Sab’ai sayyor”).

Taqi (dag’i, tag’i). Asosan **ham, hamda** yordamchisi vazifasini bajargan. Bog’langan qo’shma gapni tashkil etishda xizmat qilgan bu yordamchi Navoiy va Bobir asarlarida ham mavjud. Masalan: **Dag’i** dadhah sorardi o’z luk bila mashg’ulluq qilisa (“Majolis un nafa’is”). Bir-ikki giridin so’ng men atlanib ordug’a keldim. Ul **dag’i** tushkun yeriga bardi (“Bobirnama”)

Hozirgi o’zbek adabiy tilida **taqi** yordamchisi qo’llanmaydi.

Va bog’lovchisi. Bu bog’lovchi aslida arab tilidan kirgan bo’lib, dastlab XI asr yodnomasi “Qutadg’u bilig”da uchraydi va so’nggi davr qo’l yozmalarida qo’shma gap va sodda gap tarkibida juda keng qo’llanadi.

Biz Navoiy va Bobir asarlarida **va** hamda **lekin** bog’lovchilarining birikkan holda kelishini ham ko’rishimiz mumkin. Nazmg’a nisbat berurdin yuqariraqdur, **valekin** ham uslub va she’rda jahangir erdilar (Navoiy “Mahbub ul-qulub”). Shusmir daraxtisi bisyar, **vale** bag’chalarida aksar badam daraxtisidir (“Bobirnama”).

Ma’lumki, Navoiy davridan boshlab **va** bog’lovchisining vazifasi juda kengayib ketdi va u payt, izoh, qiyoslash, sabab-natija va boshqa mazmun munosabatida bo’lgan gaplarni biriktiradi. Masalan: Mavloni Lutfiy – o’z zamonining malikul kalomi erdi, ammo turkida shuhrati ko’prak erdi **va** turkcha devoni mashhurur **va** mutaaziruljabob matla’lari bor, ul jumladin biri bukim... (Navoiy “Majolis un nafa’is”). Urush, turush bo’lmay, ajrashtilar **va** Sulton Mahmudxon urush kishisi emas erdi. (“Bobirnama”).

Ham yordamchisi bog’lovchi vazifasida ham, yuklama vazifasida ham qo’llanadi. Misol: So’z durrining tafovuti mundin dog’i beg’oyatroq va martabasi mundin **ham** benihoyatroqdur. (Navoiy “Muhokamat ul-lug’atayn”). ...atraf tamam narunj daraxtlardur, anar daraxtlari **ham** bar (Bobirnama).

Beqaydmenu xarobi siym ermasmen,

Ham mol yig’ishtirur laim ermasmen (Bobir)

Har ikkila shoir ijodida ham zidlov bog’lovchilarining hozirgi o’zbek adabiy tilidagi singari **amma, lekin, balki** so’zlari bilan ifodalanishini ko’rishimiz mumkin. Bu bog’lovchilar bir-biriga muvofiq bo’lmagan harakat, holat, xususiyatni ifodalovchi gaplarni biriktirib, bog’langan qo’shma gap hosil qiladi. Xiradmand uldurkim, yolg’on demas, **ammo** barcha chin degulik ham emas... (Navoiy “Mahbub ul-qulub”).

Navoiyda lekin bog’lovchisi ammo bog’lovchisiga nisbatan kamroq qo’llangan:



Sen garchi guhar do'koni ochting,

Lekin bu guharni elga sochting... (“Xazoyin ul-maoniy”).

Bu kentlar batamom tog' etagidagi va tog'da tursalar-da, **lekin** xarjda, iste'molda, pul muomalasida yaxshi emaslar (Bobirnoma).

Ya bog'lovchisi qadimgi davrlardan boshlab tilimizda qo'llangan. Bu bog'lovchi asosan, bir-birini inkor etuvchi, birida ro'y berishi mumkin bo'lgan voqea-hodisa, holatlarni ifodalovchi gaplarni biriktiradi.

Navoiy asarlari tilida **ya** bog'lovchisidan tashqari **gah** (**gahi**, **gahiki**, **gahikim**) bog'lovchisi ham qo'llangan. Ya'ni ayiruv bog'lovchisi vazifasini bajargan. Va **gah** azizlar suhbat va xizmatidin o'zumni bahramand va so'zumni dilpisand va arjumand topdim. Va **gah** nishot bog'ida bazm tarxi soldim, va soqiy va mutriblar baxmu simoidin bahra oldim (Navoiy “Mahbub ul-qulub”).

Bobir ijodida ham **ya** va **gah** bog'lovchilari barobar qo'llanganini ko'rishimiz mumkin.

Gahi ke ichkulikke tusher edi, yigirma-o'tuz kun payapay icher edi. **Gahi** kim, chig'irdin chiqar edi, yana yigirme-o'tuz kun ichmes edi (Bobirnoma).

Ne bog'lovchisi. Bu yordamchi ham inkor mazmunidagi gaplarni bir-biriga bog'laydi.

Navoiy va bobir asarlarida **ne** yordamchisi ko'pincha **va** bog'lovchisi bilan birga qo'llanadi va yaxlit, ixcham tuzilishni tashkil etadi. Ne sha'irana tarkiblari ahsan **va ne** ashiqana so'z durlari shu'la afkan (Navoiy “Mahbub ul-qulub”). ...,saltanat anlag' nakas, behunarlarg'a **ne** nav' yetkay, **ne** asil, **ne** nasab, **ne** insaf, **ne** adalat, Baysung'ur mirzani beklari bila... (Bobirnoma).

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, bog'langan qo'shma gaplarning taraqqiyoti teng bog'lovchilarning shakllanishiga bog'liq. Bu esa til vositalaridan o'rinli va unumli foydalanishni taqozo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bobirnoma, T., 1997.
2. G'. Abdirahmonov, Sh. Shkurov. O'zbek tilining tarixiy grammatikasi. T., 1973.
3. Navoiy., “Mahbub ul-qulub” T., 2002.



NAJMIDDIN KUBRO IJODINING TARBIYAVIY AHAMIYATI

Mustafoeva Nodira Safoyevna
Xorazm viloyati Tuproqqala tumani
Hazorasp 2-son kasb hunar maktabi
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada mutassavvuf shoir Najmiddin Kubro ijodining mohiyati, qilgan jasorati, uning ijodini o'rganishning tarbiyaviy ahamiyati haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Najmiddin Kubro, sharq madaniyati, tamaddun, adabiyot, san'at, mutasavvuf, tariqat, javonmardlik, kubroviya.

Ko'hna sharq madaniyati, tarixi, adabiyoti va san'ati dunyo tamaddunida alohida o'rin tutadi. Ulug' ajdodlarimiz al Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Forobiy, Ahmad Yassaviy, Bahovaddin Naqshbandiy, Pahlavon Mahmud, Alisher Navoiylar Ilm- fan, adabiyot va san'at sohasida mislsiz yutuqlarga erishib, ularning ibtidosini boshlab bergan. Mana shunday buyuk zotlardan biri adabiyotimiz tarixida munosib o'rin egallagan ijodkor, mutasavvuf shoir javonmardlik tariqatining asoschisi vatandoshimiz Najmiddin Kubro hisoblanadi. O'zbekiston mustaqillikka erishgan kundan boshlab o'tgan qisqa vaqt ichida o'zbek xalqi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy sohalarida katta yutuqlarga erishdi: o'z tarixiga yangicha tafakkur asosida yondoshish, ulug' ajdodlar qoldirgan boy madaniy, ma'naviy merosni o'rganish sharafiga muyassar bo'ldi, milliy g'ururi qayta tiklandi; respublikada ilm-fan, jumladan pedagogika yangi taraqqiyot bosqichiga ko'tarilmoqda. O'tmishdagi tafakkur daholarining shuhratini tiklash, ularning g'oyalarini xalq hayotiga tatbiq etishdek ulug' ishlar amalga oshirilmoqda.

Qadimdan ota-bobolarimiz yosh avlodning hayoli, iboli imon-e'tiqodli komil inson qilib tarbiyalashga alohida e'tibor berganlar. Bu ishda islomiy tarbiyaning ma'naviy-ma'rifiy ahamiyati katta bo'lgan. Islom dini inson ma'naviyatini poklashga muhim mavqeni egallagan. Bu haqida birinchi Prezidentimizning: “Islom dini-bu ota-bobolarimiz dini, u biz uchun ham iymon, ham axloq ham diyonat, ham ma'rifat ekanligini unutmaylik” degan so'zlarida o'z ahamiyatini topgan. Tasavvuf ta'limoti islom dini paydo bo'lgandan so'ng, uning doirasida Qur'oni Karim va Hadisi sharif ahkomlariga mos ravishda paydo bo'ladi. X-XI asarlarda Movarounnahr umuman musulmon mamalakatlari xalqlarining ijtimoiy-siyosiy madaniy- ma'naviy hayotida g'oyaviy oqim sifatida keng yoyiladi.

Buyuk mutasavvuf shoir Najmiddin Kubro 1145-yilda Xiva yaqinidagi Sayot qishlog'ida tavallud topdi. Uning nomi yetti yoshligidanoq jahonga mashhur bo'ldi. O'z zamonasi ilm-u urfonida unga teng keladigan birorta olim bo'lmagan. Najmiddin Kubro haqida Alisher Navoiy o'zining mutasavvuf ijodkorlar haqida ma'lumot beruvchi “Nasoyimul muhabbat” asarida shunday yozadi: Alarg'a Kubro ondin laqab bo'ldiki, har kim bilan muhokama va mubohasa qilurlar erish, ul kishi g'olib bo'lurlar erish. Buyuk alloma Jaloliddin Rumiy, Pahlavon Mahmud, kabi ijodkorlarning shakllanishida ma'naviy ustoz vazifasini o'tagan.

Najmiddin Kubro “Al usul al ashara” (O'n usul’), “Risolayi Najmiddin” kabi falsafiy-tasavvufiy asarlar yozish bilan birga adabiyotimiz tarixiga o'zining qator sarmazmun ruboiylari bilan ham hissa qo'shgan. Adib she'riyati hayotiy falsafa bilan yo'g'rilgan. Ularni o'qish orqali hayotdagi sabab va oqibat, butun va qism, tasodif va qonuniyat orasidagi bog'lanishlar tahliliga duch kelamiz.

Mumtoz adabiyotni sharhlashda biz albatta tasavvuf ta'limoti nuqtayi nazaridan yondoshsakgina asar mazmunini, va ijodkor aytmog'chi bo'lgan fikrlarni to'liq anglamog'imiz mumkin. Tasavvuf ham diniy g'oyadir. Undagi «Mo'minning mo'minga zulmi haromdir» qabilidagi shiorlari soddadil odamlarni o'ziga maftun qiladi. Tasavvuf Islomning o'zi bilan birga rivojlanadi va keng omma orasiga yoyiladi. Shunga ko'ra bu oqimni dunyodagi ko'plab xalqlarning ijtimoiy-falsafiy hamda badiiy tafakkurida uchratish mumkin. Tasavvuf insonning ma'naviy kamolotga erishish yo'lidir. Bu yo'l to'rt qismga ajratiladi: 1) shariat; 2) tariqat; 3) ma'rifat; 4) haqiqat.

Haqiqat tasavvufning eng yuqori - oliy bosqichidir. Unda ezgulik va yomonlikning mohiyatini to'la anglab yetish, har qanday ko'ngil istaklarini pinhon tutishning uddasidan chiqish hamda shariat, tariqat, ma'rifat talablarini to'liq bajarish talab qilinadi. Tasavvuf, asosan, ma'naviy jarayondir. Unda inson qalbini boyitadigan omillarga chorlov nihoyatda kuchli. Ishq odamning



odamgagina bo'lgan muhabbatidan iborat emas. Bu ishq insonning Haqqa, haqiqatga, muhabbati hamdir. Muhabbatning maskani — ko'ngil. Shuning uchun ham tasavvuf adabiyotida ko'ngil obrazining atroflicha tasviri kuzatiladi.

Tasavvuf o'zbek adabiyotini ham yangi-yangi go'zal fikrlar, g'oyalar, obrazlar tizimi bilan boyitdi. Bu adabiyotning yuksalishi va takomiliga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Najmiddin Kubro ruboiylarini sharhlashga ham mana shu ta'limot nuqtayi nazaridan yondoshadigan bo'lsak, samarali natijalarga erishishimiz mumkin.

Yo'linda samar hadis va afsona ermish,
Ko'yingda kezib el bari devona ermish
Savdoying ila men kabi ming dilso'xta
Ka'ba sarimas azimi butxona ermish.

Ma'lumki Ishq azaldan to abad insoniyat bilan yonma yon shakllangan eng oily tuyg'u hisoblanadi. Chunki insonning o'zi tangri muhabbatining mukammal mahsulidir. Tasavvuf ta'limoti bo'yicha ishq bu haqiqatga erishish yo'lidagi asosiy vosita. U borliqni harakatga keltiruvchi asosiy kuch. Ishq yo'lida aytilgan gaplarning bari hadis va afsonalarga aylangan. Bu tushunchani har bir ijodkor o'zgacha bir talqini tavsiflarda bayon etgan. Najmiddin Kubro talqinidagi bu oliy tushunchaning talqini o'ziga xos tarzda namoyon bo'lgan. Ko'yida bari elni devona qilgan, ulug' allomani ham oshiqi zor etgan. Ma'shuqa esa butun olam go'zalliklarining ibtidosi asosi Olloh hisoblanadi. Unga erishish, haq diydoridan bahramand bo'lish uchun haqiqat yo'lga kirgan kishi albatta bu o'tkinchi dunyoning hoyi havaslaridan voz kechib ko'ngil pokligini insoniy, fazilatlarni birinchi o'ringa qo'ymog'i joiz. Bu juda ham mushkul va ayni damda juda ham oson savdo hisoblanadi.

Mana shu poklanish orqali inson o'zligini, o'z mohiyatini anglab yetadi. Alisher Navoiy o'zining “Lison ut tayr” (Qush tili) kabi adabiy- tasavvufiy asarida ularni majoziy ravishda haqiqat izlab yo'lga chiqqan qushlar timsolida ko'rsatib bergan. Ular mana shu haqiqatni idrok etib anglash uchun ham 7 ta vodiya riyozatlarni boshdan kechirishadi. Ruboiyning oxirgi misrasida esa. Alisher Navoiyning “Lison ut tayr” asaridagi ishq dardida o'zligini unutib butxonada g'olaxlik qilgan shayx Shayx San'on nazarda tutilmoqda.

Ul boda ichib demasmen: hushyor bo'layin,
Bu mastliq aro nainki hushor bo'layin.
Bir jomi tajalliyl jamoling menga bas,
To yo'qligu borlikdin bezor bo'layin...

Ichganda hushdan ayiradigan, bedorlikdan bezishga asos bo'lgan may ya'ni bodaning ramziy ma'nosini sharhlashga biz Kubro shaxsiyiga tayanishimiz mumkin. Haqiqat yo'lida sobitqadam bo'lgan oshiq ishqda sadoqatni birinchi o'ringa qo'yadi. Hech qachon “ma'shuqa jamoli tajalliysiga” ya'ni haqiqatga erishishdan ortga chekinmaydi, o'z ishqidan voz kechmaydi. Haqiqiy ishq esa o'zining ahdu vafosi va sadoqati bilan go'zaldir. Najmiddin Kubro ham o'z hayoti davomida o'zi tanlagan haqiqat yo'lidan voz kechmadi. U tasavvuf ta'limotini chuqur o'rganib idrok etib unda o'z yo'lini o'z tariqatini ishlab chiqdi. Ulug' alloma Najmiddin Kubro boshlab bergan javonmardlik tariqatining asosiy mohiyati saxovat, shafqat, tama'dan xoli bo'lish va muhtojlar g'amiga sheriklikda namoyon bo'ladi.

Har lahza bu mardonayu farzona ko'ngil,
Yongay sening ishqingda jonona ko'ngil.
Bir lahza muhabbat mayini tark etsam,
To'lgan shu jigar qoniga paymona ko'ngil.

Buyuk shayx umrining oxirgi lahzalarigacha o'z javonmardlik, vatanparvarlik kabi aqidalariga sodiq qoldi. Buyuk salaflarimiz ijodini o'rganish, ular ijodining asl mohiyatini yosh avlodga yekazib berish orqali biz ularda mehnatsevarlik, insonparvarlik, vatanparvarlik kabi fazilatlarni shakllantirishimiz mumkin. Bu o'rinda Najmiddin Kubro kabi buyuk vatandoshimizning hayot yo'li ibratga arzigulikdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alisher Navoiy. “Nasoyimul muhabbat”. Toshkent-2017.
2. Alisher Navoiy. “Lison ut tayr”. T.: Toshkent.1991.
3. I.A.Karimov “O'zbekiston Siyosiy-Ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari”. T.; O'zbekiston nashriyoti. 1996.
4. Internet saytlari.



ADABIYOT DARSLARIDA XALQ OG'ZAKI IJODI MAVZUSINING O'QITILISHI YUZASIDAN TAVSIYALAR

Alikulova Nasiba Mustafoyevna

Jizzax viloyati G'allaorol tumani 58-umumiy
o'rta ta'lim maktabi ona tili va adabiyot
fani o'qituvchisi

Telefon nomeri : +998991193625

Annotatsiya : Ushbu maqolada adabiyot darslarida xalq og'zaki ijodi mavzusining o'qitilishi yuzasidan tavsiyalar beriladi va mavzu yuzasidan ilmiy mulohazalar bayon etiladi.

Kalit so'zlar : xalq og'zaki ijodi, folklor, ertak, yozma manbalar, Mahmud Qoshg'ariy, maqollar, matallar, eng qadimgi yozma manbalar

Bugungi kunda o'quvchilar orasida badiiy asarlarga bo'lgan qiziqish juda talab darajasida emas. Chunki bugungi kun o'quvchisi kitob varaqlab o'tirishdan ko'ra uyali aloqa vositasi yoki boshqa texnika vositalari orqali ma'lumot olishni o'zlariga juda qulay ko'radilar. Lekin kitobning ta'siri baribir o'zgacha ekanligini, adabiyot so'z san'ati ekanligini biz ustozlar har daqiqada o'z o'quvchilarimizga ta'kidlamog'imiz va buni misollar asosida tushuntirib bormog'imiz darkor. Xo'sh, nega ajdodlarimiz adabiyot shaydosi bo'lganlar-u, bizning yangi avlodlarimiz esa adabiyotni sevib, ardoqlashga oddiy vaqt topa olmaydilar. Axir o'sha bola ona allasi bilan uxlab, buvisining qiziqdan qiziq ertaklari ta'sirida ulg'aymadimi? Xalq og'zaki ijodi namunalari ham o'quvchilarga o'rgatishda charchamaslik kerak. Masalan, ba'zi bir viloyatlarda folklor an'analarga sodiqlik juda kuchli. Hatto yosh bolalar xalq dostonlarini do'mbira jo'rligida yoddan kuylaydilar. Bu, albatta, adabiyotning gullab-yashnab rivojlanishiga katta ta'sir etadi. Xalq og'zaki ijodi namunalari har doim kishilar e'tiborida bo'lgan va bo'lib qoladi. Masalan, «Boychechak», «Chittigul», «Boshginam og'riydi» qo'shiqlarini, «Uch og'ayni botirlar», «Zumrad va Qimmat», «Malikayi Husnobod» ertaklarini, «Alpomish», «Go'ro'g'li», «Kuntug'mish» dostonlarini sevib tinglamagan o'zbek kitobxonini bo'lmasa kerak.

Xalq og'zaki ijodi – mehnatkash omma ijodi, xalq san'atining boshqa, ya'ni musiqa, teatr, raqs, o'yin, tasviriy va amaliy san'at kabi turlaridan o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadigan og'zaki so'z san'atidir.

Xalq og'zaki ijodi – insoniyatga tengdosh eng qadimiy san'at. Har bir xalqning og'zaki ijodi o'sha xalqning fe'l-atvori, estetik didi, ruhiyati, urf-odat va an'analari, orzu-intilishlari, geografik sharoiti va tabiatini aks ettiruvchi o'ziga xos ko'zgudir. Biz ana shu ko'zgu vositasida olamshumul ezgu niyatlar, insoniy fazilatlar, yovuzlik, zulm, adolatsizlikka qarshi nafrat tuyg'ularini ko'ramiz.

Og'zaki so'z san'ati «folklor» yoki «xalq og'zaki poetik ijodi» atamaları bilan ifodalanadi. «Folklor» atamasi ilk bor XIX asr tadqiqotchisi Vilyam Toms tomonidan 1846-yilda qo'llangan bo'lib, «folk» – xalq va «lor» – bilim, donolik, donishmandlik, ya'ni «xalq bilimi», «xalq donoligi», «xalq donishmandligi» demakdir. Xalq og'zaki ijodini o'rganuvchi fan folklorshunoslik deb ataladi.

Xalq ijodiyotining yaratilishi va yashash tarzi og'zaki usulda amalga oshadi. Ya'ni bunday asarlar og'zaki ravishda ijro etilishi sababli ularning mazmuni va shakli o'zgarishi, unga yangi qismlar qo'shilishi yoki biron-bir qismi tushib qolishi mumkin.

O'zbek xalq og'zaki ijodi eng qadimiy san'atlardan biri bo'lib, u jahon xalqlari poetik ijodi taraqqiyotida alohida o'rin egallaydi. O'zbek folklorida turlar va janrlar quyidagicha tashkil topgan.

Epik tur – mif, afsona, rivoyat, ertak, naql, latifa, lof, terma, doston va boshqalar.

Lirik tur – marosim folklorining deyarli barcha ko'rinishlari, bolalar folklorining ko'pgina turlari, qo'shiqning hamma xillari, ashula va shu kabilar.

Dramatik tur – og'zaki drama, qo'g'irchoq o'yin, askiya, xalq teatrlari va shu kabilar.

Maxsus tur – maqol, matal, topishmoq kabilar.

Xalq og'zaki ijodiga doir dastlabki manbalar birinchi o'zbek tilshunosi Mahmud Qoshg'ariyning “Devoni lug'otat turk” asarida uchraydi. Bu asar orqali ijodkor o'n birinchi asrga doir folklor namunalarni ham bizga yetkazib bergan. Qo'shiq atamasi ham ilk bor Mahmud Qoshg'ariy asarida uchraydi. “Erdam bashi til”, (“Odobning boshi til”), “Uma kelsa, qut kelur” (“Mehmon kelsa,



baraka keladi”) kabi bugungi kunda hm o’z mavqeyini yo’qotmagan maqollar “Devoni lug’otat turk” asaridan o’rin olgan.

Xalq og’zaki ijodi asrlar davomida misqollab to’plangan, ne-ne sinovlardan o’tgan, insonlarga hamisha madad bo’lib kelgan noyob xazinadir. Bizning vazifamiz ana shu xazinani ko’z qorachig’idek asrash va yanada boyitish hisoblanadi.

Foydalaniladigan adabiyotlar :

1. Adabiyot. Boqijon To’xliyev, Bahodir Karimov, Komila Usmonova. Toshkent. “O’zbekiston milliy ensiklopediyasi”. 2018.

2. Adabiyot. Nilufar Rasulova. Toshkent. “Nurafshon ziyo yog’dusi”. 2018.

ЎЗБЕКИСТОНДА МИЛЛИЙ ТАДКИКОТЛАР: ДАВРИЙ АНЖУМАНЛАР: 8-ҚИСМ

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусаҳҳиҳ: Файзиев Фаррух Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 28.02.2022

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000
